



## BOLALAR LATIFALARINING QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI

**Feruza Temirova,**

*Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada bolalar latifalarining qiyosiy adabiyotshunoslikdagi tarjima obyekt sifatidagi ahamiyati tadqiq etilgan. Muallif tomonidan bolalar latifalari latifalarning alohida bir yo'nalishi ekanligi yoritilgan. Xorijiy mualliflar va tarjimashunoslarning o'zbek xalq latifalari tarjimasi bilan bog'liq ishlari tahlilga tortilgan.*

**Kalit so'zlar.** *Latifa, bolalar latifalari, sotsiolingvistika, feleton, hajviya, satiura, kichik maktab yoshi*

Hozirgi kunda yurtimizda o'zbek an'anaviy tilshunosligi zamirida shakllangan qiyosiy tilshunoslik fanining rivojlanishi va ahamiyatini oshirish maqsadida juda keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu fan tarmog'ining rivojida nazariy bilimlar bilan birgalikda mukammal amaliy tadqiqotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Nafaqat o'zbek balki, jahon tilshunosligida ham latifalar ma'naviy va madaniy manba sifatida tadqiq etiladi. Sharq va G'arb mamlakatlari orasida adabiy aloqa o'rnatish, tarjima jarayonlarini rivojlantirish tilshunos olimlarning asosiy maqsadidir. Zero, o'zbek xalq latifalari janri o'ziga xos qadimiyligi, an'anaviyligi, o'zida tarixiy qadriyatlarni mujassamlashtirganligi bois hamisha G'arb dunyosining e'tibor markazida bo'lib kelgan. Jumladan, asli hindistonlik bo'lgan lekin Londonda yashab ijod qilgan yozuvchi Idris Shoh Markaziy Osiyo xalqlarining latifalaridagi bosh qahramon Nasriddin Afandi haqidagi 111 ta latifani o'z ichiga olgan "The Exploits of Incomparable Mulla Nasriddin" (1) hamda "The Subtleties of the inimitable Mulla Nasriddin" (1973) to'plamlari, Marilyn Petersonning "Treasury of Uzbek Legends and Lore" kabi tarjima asarlar o'zbek xalq latifalarini dunyo kitobxonlariga yetkazib berishni ta'minlamoqda.

Aslida birgina latifa janrining o'zi ichiga butun bir olamni mujassam etadi. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy, milliy va an'anaviy hayotning barcha tomonlarini qamrab oladi. Latifa keng qamrovli tushuncha bo'lganligi bois uni sotsiolingvistika qoidalariga binoan yosh doiralariga mos ravishda ajratib o'rganishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Bolalar adabiyotida latifalarning qamrovini yanada oshirish, ikki tilda amalga oshirilgan tarjimalarni tahlil qilish ilmiy izlanishlarning asosiy muhim obyekt hisoblanadi. Zero, latifalar nafaqat ta'limiy balki tarbiyaviy ahamiyatga ega alohida yo'nalish hisoblanadi.

Sharq xalqlari orasida XI asrdanoq mashhur bo'lgan Kaykovusning "Qobusnoma" (3) asari o'zining ta'limiy, pedagogik jihatlari bilan ajralib turgan. Undagi ko'plab hajviy masallar, hikoyalar bolalar tomonidan ham sevib mutolaa qilingan. Asar 1860-



yilda Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan tarjima qilingan. U 44 bobdan iborat bo'lib, mo'jaz rivoyatlar, ixcham latifalar, kichik-kichik hikoyatlar tarzida berilgan, har bir hikoya mustaqil mazmun-mohiyatga ega. "Qobusnoma"da nasihat, hikmat, latifa va hazil-mutoyiba javohirlarini bir-biriga qo'shganlar, bu orqali ham jismoniy, ham aqliy tarbiyaning barcha qirralari teran tahlil etilgan, inson shaxsining shakllanishi uchun muhim detallarga e'tibor qaratilgan. Latifalar fantastik detallar va realistik voqealarga boyligi bilan bolalarning adabiyotining ajralmas qismiga aylangan. Bolalarning yoshi, saviyasi va qiziqishiga mos holatda latifalar taqdim etilishi ularning qayta ishlanib, boshqa tillardagi latifalarning muqobil tarjima variantlarini ko'rsatib o'tish tarjimonlarning asosiy vazifasidir.

Yurtimizda 1923-yilda xalqparvar ziyolilardan Abdulla Qodiriy va G'ozi Yunusovlar tomonidan asos solingan yagona satirik va hajv yo'nalishdagi "Mushtum" jurnali o'tkir maqola, felyeton, hajviya va karikaturalari orqali qisqa vaqt ichida juda ommabop bo'lib ketdi. Abdulla Qodiriyning o'zi ham jurnalga 10 dan ortiq taxallus bilan ko'plab maqola, hajviya va felyetonlar yozgan. Qodiriyning fikricha kulgi jurnalida hayotda uchraydigan kamchilik – yetishmovchiliklarni rasman ifodalab qo'ya qolmay, unga kuli "to'ni" ham kiygizish, nazokat ishlatish, badiiy tus berish kerak. Ya'ni ham kuzatilgan go'ya, muddao, siyosat saqlansin, ham o'quvchi kulsin, hordiq chiqarsin (4). Jurnalda xalqimiz taraqqiyoti, madaniyati, rivoji uchun to'siq bo'lgan har bir davrga xos kamchilik va nuqsonlar tanqid qilingan.

"Mushtum" jurnali asosan katta yoshdagi kitobxonlar uchun taqdim etilar edi. Shu bilan birga, sovet hokimiyati yillarida "Gulxan" singari jurnallar ham tashkil etilib, bolalar uchun mo'ljallangan badiiy ijod namunalari chop etila boshlandi. Ushbu materiallar orasida bolalar uchun mo'ljallangan latifalar ham mavjud edi. Bolalar latifalarining muhim bir jihati ular tuzilish jihatdan sodda va qisqa bo'ladi. Bunda nutqning dialogik shaklidan keng keng qo'llanilganligi sababli matnning o'quvchilar tomonidan qabul qilinishi oson bo'ladi. Yurtimizda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan "Bor ekan – Zo'r ekan" jurnali, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun "G'uncha" va o'rta maktab yoshidagi bolalar uchun mo'ljallangan "Gulxan" kabi jurnallar bolalarning vaqtini unumli va maroqli o'tkazishga xizmat qildi. Masalan, jurnallarning karikatura, tabassum, "Gulxanda handa" kabi bo'limlari o'quvchilarga satirik va yumoristik ruhdagi adabiy parchalar berib boradi. Shuningdek, hajviya yo'nalishidagi namunalar bolalar tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilinmoqda.

Bolalar latifalari maxsus chop etiladigan jurnallar xorijiy davlatlarda ham mavjud. Xususan, "Мурзилка" jurnali Rossiyaning mashhur bolalar adabiyoti va san'atiga oid ijod namunalari o'z ichiga olgan bo'lib, 1924-yildan buyon rus yozuvchilari va o'quvchilari o'rtasidagi adabiy interaktiv jurnal hisoblanadi. U o'z ichiga milliy va chet el adabiyotidagi asarlarning tarjimalari xususan she'rlar, hikoya-ertaklar shu jumladan, satirik va yumoristik xarakterga ega badiiy asarlar latifalarni o'z ichiga oladi.



Darhaqiqat, latifalar nafaqat kattalar balki, bolalar uchun ham qiziqarli va muhim adabiy manbaalardan biridir.

Latifalar bolalar adabiyotining yanada seqirra, mazmunliroq bo'lishini ta'minlaydi. Latifalar pand-nasihatharakteriga ega ekanligini hisobga olsak, ular bolalar ongida hazil mutoyiba orqali yengil o'zlashtiriladi. Bolalar uchun turli latifalar yozilgan kitoblar yoki jurnallar yoshlar tomonidan sevib o'qiladi va qadrlanadi. Latifalar turli tuman bo'lib, millat, yosh, g'oyalar va boshqa shaxsiy xususiyatlar barcha yoshdagilar uchun har xildir. Shuning uchun bolalar uchun mo'ljallangan hazillar kattalarnikidan farq qiladi. Bolalar latifalarni o'qish orqali kutilmaganda tanqid, so'z o'yini, tushunchalarning odatiy ma'nosidan farqli boshqa ma'no anglatishi kabi hodisalarga duch kelishadi. Latifalar bolalar uchun mantiq va ijodkorlik xususiyatlarini rivajlantiradigan xarakterga ega deb hisoblanadi. Latifalarning bolalar adabiyotidagi o'rni ba'zi o'zbek olimlarining ishlarida ko'zga tashlanadi. Masalan, B.Sarimsoqov, F.Yo'ldasheva "Afandining latifalari" kitobida "Afandi va bolalar bo'limi mavjud bo'lib, bunda Afandi va bolalar o'rtasidagi muloqot ijtimoiy, tarbiyaviy va axloqiy mazmuni o'zida mujassam etgan latifalar o'rin olgan. Darhaqiqat, latifalarni keng miqyosda targ'ib qilish, ularni bolalar adabiyotining bir bo'lagi sifatida rivojlantirish, boshqa tillardan tarjima qilingan yoki ona tilimizdan ingliz tiliga tarjima qilingan latifalarni o'quvchilar orasida kengroq targ'ib etish maqsadga muvofidir. Darsliklarni, bolalar jurnallarini ingliz tilidagi latifalar va boshqa yumoristik asarlar bilan boyitish ularni nafaqat o'qishga balki, til o'rganishga bo'lgan qiziqishini ham oshiradi. Yurtimizda bu borada olib borilayotgan yana bir muhim ishlardan biri 4 tilda chop etilgan "Xo'ja Nasriddinning g'aroyib latifalari" nomli asar Germaniyaning "Peacock Verlag Berlin" nashriyoti bilan hamkorlikdagi ishlardan biri hisoblanadi. "Xo'ja Nasriddinning g'aroyib latifalari" kitobiga 40 ta hikoya kiritilgan bo'lib, ular o'zbek, rus, nemis va ingliz tillaridagi tarjimalarda berilgan. Ushbu nashrning e'tiborli jihati shundaki, kitob O'zbekiston va Germaniya maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalarning bevosita ishtirokida yaratilgan. Ularning chizmalari hikoyalar uchun rasm sifatida tanlab olingan. Illyustrasiyalarni saralab olish uchun jamg'arma tomonidan Maktabgacha ta'lim vazirligi hamda Berlindagi Maktabgacha ta'lim sindikati hamkorligida tanlov tashkil etilgan. Kitobga taniqli o'zbek va nemis aktyorlari tomonidan o'qib berilgan hikoyalarning ko'p tovushli audio yozuvi bo'lgan CD ko'rinishidagi kompakt disk qo'shilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. The exploits of the incomparable Mulla Nasrudin / by Idries Shah; drawings by Richard Williams. London, Cape, 1966 158 p.
2. Idris Shax. The Subtleties of the Inimitable Mulla Nasrudin. London: Jonathan Cape, 1973. 174 p.



3. Kaykovus. Qobusnoma. Forschadan Muhammad Rizo Ogahiy tarj. Nashrga tayyorlovchilar: S.Dolimov, U.Dolimov. – T.:O`qituvchi, 2011.

4. X.Қодирий. Дийдор қиёматга қолса нетайин. (Қодирийнинг сўнгги кунлари): хотиралар, тарихий-илмий тадқиқотлар. -Тошкент: "Zilol buloq" нашриёти, 2019. -Б.47.

5. Хо'ja Nasriddinning g'aroyib latifalari. -Berlin: Peacock Verlag Berlin, 2020.